

SOTSIOLINGVISTIKANING O'RGANISH BIRLIKLARI

Asatullayev Furqat

Terdu 2-kurs magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Sotsiolingvistika fanining o'rganish obyekti va predmetini belgilashda tilshunoslarning qarashlari tahlil etildi. Fanning ijtimoiy fanlar orasidagi o'rni va uning boshqa fanlar bilan aloqasi haqida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy lingvistika, til va jamiyat, falsafiy tilshunoslik, umuminsoniy munosabatlar, ijtimoiy dialekt, hududiy dialekt, differensiya, noadabiy unsurlar.

Insoniyat bugungi kunda juda tezlik bilan rivojlanayotgan texnika va texnologiya asrida yashamoqda. Zamonaviy texnologiya aqlbovar qilmas darajada rivojlanib bormoqda. Bugungi davrda nafaqat texnologik soha, balki ijtimoiy sohalar ham jadal rivojlanmoqda. Shunday ijtimoiy sohalardan biri sifatida sotsiolingvistikani aytish mumkin. Sotsiolingvistika tilshunoslik yo'naliqidagi fan hisoblanib, ijtimoiy munosabatlarda tilning tutgan o'mini, til taraqqiyotini va tilning vazifaviy xususiyatlarini hamda jamiyat til uchun, til esa jamiyat uchun ajralmas, bir-biridan ayro rivoj topmas jarayon ekanligini o'rganadi.

Avvalambor, sotsiolingvistika rivojlanish nuqtayi nazaridan tilning ijtimoiy shartlanganligi, tilning jamiyatga, jamiyatning tilga ta'sirini o'rganuvchi fan sifatida tadqiq etilishi kerak. Zero, ijtimoiy lingvistika hayot prinsiplarini til faktlari asosida o'rganar ekan, uning o'ziga xos xususiyatlarini anglab olish lozim bo'ladi. Zero, sotsiolingvistikani bir necha nom ostida nomlanishi bunga yaqqol misoldir. Jumladan, "ijtimoiy til", "ijtimoiy tilshunoslik", "tilshunoslikning ijtimoiyligi", "falsafiy tilshunoslik", "tilning ijtimoiyligi", "sotsiolingvistika" kabi atamalar bilan nomlashlar bu fanning o'ziga xos xususiyatga ega ekanligidan dalolatdir. Bu fan garchi tilshunoslik yo'naliqidagi fan bo'lsa-da, u sotsiologiya, falsafa, tarix, etnografiya; tilshunoslikning lingvokulturologiya, etnolingvistika, dialektologiya kabi yo'nalichlari bilan doimiy aloqada rivojlanadi. Xususan bu soha ham tilshunoslik va jamiyatshunoslik fanlarining kesishuvida shakllanganligi fikrimiz tasdig'idir. "Sotsiolingvistikani fan sifatida o'rganish jarayonida uning umuminsoniy hamda siyosiy xususiyatlari, jumladan, til va jamiyat, til va mafkura, til va tafakkur, til va xalq, til va yosh, til va jins, davlat institutlarida til, til taraqqiyotini rejlashtirish, shuningdek, tilning falsafiy xususiyatlarini o'rganish lozim"[1:5]. Yuqoridagi fikrlarni rad etmagan holda yana aytish mumkinki, bu fan adabiy til va noadabiy til, til va dialekt, til va jargon, argo, til va koyne, slang, diglossiya, interferensiya, differentsiya, unifikatsiya, turli qatlam tillari, hududiy tillar kabi juda muhim masalalar tadqiqi bilan ham shug'llanishi kerak va ularning rivoj topishi uchun muhit yaratib berishi kerak. Bu fanning predmetini belgilab olish jarayoni ham ancha

murakkab jarayon bo'lib, bu borada tilshunoslar turlicha fikr bildirishgan. Masalan, "O. S. Axmanova lug'atida "sotsialingvistika" termini "ijtimoiy lingvistika" "tilshunoslikning ijtimoiyligi" deb atalishi asosida quydagicha ma'no kelib chiqadi. Birinchidan, tilning umuminsoniy munosabatlardagi o'rni, til va jamiyat o'rtasidagi xususiyatlarning o'zaro bog'liqligini o'rganish tadbiq etilsa, ikkinchidan, tilshunoslikning ijtimoiy munosabatlardagi turli xil vazifaviy xususiyati va aloqadorligi (masalan: ijtimoiy dialekt, hududiy dialektlar, argo va jargonlar va hokazo). Ikkinchi vaziyatda ijtimoiy dialektlarning ijtimoiy til mohiyatlarini belgilovchi xususiyatlari faqat ijtimoiy dialekt sifatida emas (professional nutq, koyne va h.k) tarzda tushuniladi. Ko'rindaniki, sotsiolingvistikaning asosiy muammosi "til va jamiyat" o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishdan iboratdir. Shunday ekan, til va jamiyat munosabatlari o'rtasidagi bu bog'liqlik til va jamiyat taraqqiyotining uzviy ko'rinishidir" [1:5] deya fikr bildirsa, "Sotsiolingvistika predmetini akademik V. M. Jirmunskiy tor ma'noda ta'kidlab; sotsiolingvistika o'zaro ikki tomonlama bog'liq munosabatlar asosida tutash topgan degan xulosaga keladi, ya'ni:

1. Ijtimoiy til differensiatsiyasi sinfiy jamiyat uchun xizmat qilib, uning tarixiy qatlamlarini o'rganadi.

2. Tilning ijtimoiy qatlamlari taraqqiyotini, uning o'tmish tarixini belgilovchi omil sifatida xizmat qiladi, deydi [1:5]. Biz esa tilshunoslarning fikrlariga qo'shilgan holda, ularning har ikkisi ham to'g'ri yondashgan deya xulosa qilamiz. Chunki har ikki tilshunos ham kichik tadqiqotlari natijasida xuloalar chiqorganlar. Ular sotsiolingvistikaning ma'lum bir "qirrasi" ni ko'rishgan ham shu jihatdan kelib chiqib sotsiolingvistikaning predmetini belgilashga harakat qilishgan. Bu fanning vazifasi va predmetini belgilab olishda professor Golovin kengroq va mufassalroq tasnif yaratgan: "Professor B.N. Golovin esa "sotsiolingvistika" fanini tor va keng ma'noda talqin etishni maqsadga muvofiq deb biladi. Chunki sotsiolingvistika funksional ma'no kasb etib, u til qurilishi taraqqiyotiga xizmat qilishini ta'kidlaydi va tilning vazifaviy xususiyatlari bilan bog'liq degan xulosaga keladi. Ayni paytda, B.N. Golovin sosolingvistika terminining 7 xil xususiyatlarini sanab o'tadi:

- a) differensiyaga xoslanishi (hududiy dialektlar, qatlamlar);
- b) tilning umuminsoniy xususiyatlari (unda yozma va og'zaki til qonuniyatlarini nazarda tutiladi);
- v) tilning nutq jarayonidagi holati (dialogik, monologik nutq ko'rinishlari);
- g) ijtimoiy jamiyatning kollektiv bilan bog'liqligi (tilning funksional (vazifaviy) belgilari);
- d) ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy til qatlamlari majmuasi (professional nutq, xalq maqollari variantlari);
- ye) badiiy tilning tur va xususiyatlari;
- j) avtor so'zi va uning xarakterli belgilari (xususiylik, variant, variantlilik) B. N. Golovin nazariyasiga ko'ra, sotsiolingvistikani birlashtiruvchi ma'nodagi sohalari bo'lib, tilning umumjamiyat taraqqiyotidagi xizmatini, til a'zolari va uning jamiyat uchun xizmat qilishini

alohida ta'kidlaydi[1:6]. Tasniflashning kengligi jihatidan ham Golovin xuloasalari ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, Sotsioningvistikaning predmeti aynan bir obyektdan iborat emas. U jamiyat va til bilan bog'liq, ularning bir-biriga bo'lgan ta'siri yoki ularga ta'sir etuvchi barcha omillar bilan qiziqadi va ularni tahlil etadi. Ma'lum bir milliy tilning ijtimoiy va siyosiy muhitdagi roli va mavqeyini ham tahlil etib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Худойназаров Икром Социолингвистика (услубий қўлланма), Қарши – 2008. 58 бет
2. Sh.Usmonova, N.Bekmuxamedova, G.Iskandarova "Sotsiolingvistika" (o'quv qo'llanma), Toshkent – 2004, 83 bet
3. Степанов Г. В. Типология языковых состояний и ситуаций в странах романской речи.– М., 1976.
4. <http://www.genderi.org/tilshunoslikka-kirish-fanining-predmeti.html?page=60>
5. Wikipedia
6. Arxiv.uz